


**“TASDIQLAYMAN”**  
**“O‘ztransgaz” AJ huzuridagi**  
**jamoatchilik kengashining raisi**

  
**L.Sharipova**  
**2025-yil “14” oktabr**

**“O‘ztransgaz” AJ tomonidan 2025-yil 3-chorakda amalga oshirilgan ishlar  
to‘g‘risida yig‘ilish bayoni sonli**

**2025-yil oktabr**

**sh. Toshkent**

**KUN TARTIBI:**

**“O‘ztransgaz” AJ HR faoliyatini to‘liq raqamlashtirish**

**Yig‘ilishda raislik - L.Sharipova – “O‘ztransgaz” AJ huzuridagi  
qildi:** jamoatchilik kengashining raisi

**Qatnashdilar:** Jamoatchilik kengashi a‘zolari: S.Egamberdiyev,  
A.Umarov, Sh.Ravshanova, Sh.Boboyev,  
S.Azizova, S. Sidikjanova, Sh.Abdullayeva,  
M.Kosimov, R.Turgunov, M.Magdiyeva

**Taklif kilinganlar:** Sh.Boboyev, M.Moxirjonov

“O‘ztransgaz” AJ jamoatchilik kengashining 2025-yil 3-chorakda amalga oshirilgan ishlari tugrisidagi yig‘ilishi Jamoatchilik kengashining raisi L.Sharipova tomonidan ochildi.

L.Sharipova jamiyatda “O‘ztransgaz” AJ HR faoliyatini to‘liq raqamlashtirish yuzasidan olib borilayotgan ishlar haqida ma’lumot berish uchun so‘zni Sh.Boboyevga berdi.

Sh.Boboyev o‘z nutqida:

“O‘ztransgaz” aksiyadorlik jamiyati tomonidan kadrlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida 2025-yilning 3-chorak davomida amalga oshirilgan ishlar haqidagi ma’lumotlar bilan tanishtirdi va quyidagilarni aytib o‘tdi.

“O‘ztransgaz” AJda HR jarayonlarini raqamlashtirish bo‘yicha yirik loyiha amalga oshirilmoqda — **HRM Argos platformasi** va **Raqamli ofis** konsepsiyasi joriy etilmoqda. Ushbu tashabbuslar markazlashtirilgan **kadrlarni boshqarish tizimini yaratish** va asosiy kadr jarayonlarini avtomatlashtirishga qaratilgan.

#### **Tizimni yaratishdan ko‘zlangan maqsadlar:**

- Kadrlar boshqaruvini yagona markazlashtirilgan tizim orqali **shaffoflikni oshirish**;
- Boshqaruv va monitoring uchun zarur ma‘lumotlarni olishdagi **operativlikni 15% ga oshirish**;
- Tashkilot bo‘ylab yagona **axborot maydonini yaratish**;
- Birlamchi ma‘lumotlarni kiritish va hisobot tayyorlashga ketadigan mehnat xarajatlarini **10% ga kamaytirish**;
- Tashkilotda **ishonchli va xavfsiz** kadrlar hisobini yuritish tizimini shakllantirish;
- **Xodimlarni baholash va KPI tizimini avtomatlashtirish**, malaka oshirish va rivojlanishni qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlarni joriy etish;
- **Qog‘ozdan voz kechish va barcha jarayonlarni raqamli shaklga o‘tkazish** — barcha arizalar, roziliklar va hujjat aylanishi elektron ko‘rinishda tizim orqali yuritiladi.

#### **Tizim orqali hal etiladigan asosiy vazifalar:**

- Mehnat shartnomalarini rasmiylashtirish;
- Ishga qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish;
- Xodimlarning lavozimiy o‘zgarishlarini hisobga olish (o‘tkazish, ko‘tarish, ish sharoitlarini o‘zgartirish);
- Ishdan bo‘shatish va hujjatlarni avtomatik shakllantirish;
- Elektron shaxsiy kartochka orqali markazlashtirilgan kadrlar hisobini yuritish;
- Shtat jadvalini shakllantirish va yuritish;
- Ish vaqtini avtomatik hisobga olish;
- Harbiy hisobni yuritish;
- Shaxsiy hisob (pensiya, soliq hisobotlari va h.k.);

#### **Quyidagi jarayonlarni to‘liq raqamlashtirish:**

- Xizmat safarlarini rasmiylashtirish;
- Mehnat, o‘qish, ijtimoiy va boshqa turlardagi ta‘tillar;
- Kasallik varaqalari (bolnichniy);
- Dam olish kunlari, moslashuvchan ish grafigi uchun arizalar.

### **Kutilayotgan natijalar:**

- Ichki kadr arizalari va jarayonlarini ko'rib chiqish tezligini oshirish;
- Kadrlar almashinuvi, xodimlar ishtiroki va o'qitish samaradorligi bo'yicha markazlashtirilgan tahliliy tizim;
- BI vositalari asosida shaxsiylashtirilgan hisobotlar va prognozlar shakllantirish;
- Kadrlar bo'limi yuklamasini kamaytirish;
- Qog'oz hujjat aylanishini to'liq yo'qotish va axborot yo'qotish xavfini kamaytirish.

Kun tartibida belgilangan masalalar bo'yicha jamoatchilik kengashi a'zolar takliflari va mulohazalari tinglandi.

Jamoatchilik kengash raisi L.Sharipova muhokama va takliflarni inobatga olgan holda 2025-yil ish rejasini 3-chorakda qo'yilgan masalalar bajarilishi ijobiy bajarilganligi tasdiqlanishini so'radi. Kengash a'zolari bir ovozdan ish rejani ijobiy bajarilganligini tasdiqlashdi. Qarshilar va betaraflar yo'q.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "O'ztransgaz" AJ jamoatchilik kengashi kun tartibiga doir masalalarni atroflicha muhokama qilib qaror qiladi:

1. "O'ztransgaz" AJ HR faoliyatini to'liq raqamlashtirish yuzasidan olib borilayotgan ishlar ishlari bajarilganligi ijobiy deb baholansin.

2. Jamoatchilik kengashining 2025 yil uchun belgilangan ish rejasining kelgusidagi choraklarda belgilangan yo'nalishlar ijrosiga alohida e'tibor berilishi inobatga olinsin.

**Kotib:**



**S.Sidikjonova**